

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI TOSHKENT DAVLAT
IQTISODIYOT UNIVERSITETI

"MOLIYA" KAFEDRASI

ALIEV BEKZOD ILHOMOVICH

**XALQARO MOLIYA TIZIMINI ISLOH QILISH
MUAMMO VA ISTIQBOLLARI**

"Davlat moliyasi va xalqaro moliya" mutaxassisligi bo'yicha

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy raxbar:

i.f.d, dotsent Tilabov N.T.

Toshkent-2023

Magistrlik dissertatsiyasi titul varag'ining orqa tomoni quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

Magistrlik dissertatsiya ishi

“ Moliya ” kafedrasida dastlabki himoyadan o'tgan.

29 -sonli bayonnoma “ 27 ” aprel 2023-yil.

Kafedra mudiri: X.X. Xudoyqulov


imzo _____ sana _____

Ilmiy rahbar: N.T. Tilabov


imzo _____ sana _____

Talaba: B.I. Aliyev


imzo _____ sana _____

Dissertatsiya Moliya va buxgalteriya hisobi fakultetidan

2023-yil “ 15 ” may

№ MBF-01/2 raqami bilan ro'yxatga olingan

ANNOTATSIYA

Dissertatsiyada xalqaro moliya tizimini muvofiqlashtirishning asosiy jihatlari muhokama qilinadi va xalqaro moliyaviy tartibga solishning dolzarb muammolari tahlil qilinadi. Bugungi kunda xalqaro moliya tizimi sanksiyalar, valyutaning devalvatsiyasi, neft narxlarining dinamikasi va uni sotish hajmining pasayishi bilan bog'liq qiyinchiliklarga duch kelmoqda.

Xalqaro moliyaviy barqarorligiga erishish zarurati xalqaro moliya tizimini tartibga solish istiqbollari baholashning dolzarbligini belgilaydi.

Zamonaviy texnologiyalar, xalqaro o'zini-o'zi boshqarish amaliyoti va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun tartibga soluvchilarning yordami asosida xalqaro moliya tizimini tartibga solishning mavjud kontsepsiyasini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar taklif etiladi.

Kalit so'zlar: xalqaro moliya tizimi, moliyaviy tartibga solish, tartibga soluvchi arbitraj, xalqaro moliya tashkilotlari, jahon moliya bozori, barqaror rivojlanish, moliyaviy barqarorlik.

Summary

The dissertation discusses the main aspects of the Coordination of the international financial system and analyzes the pressing problems of international financial regulation.

Today, the international financial system faces difficulties with sanctions, devaluation of some currencies, dynamics of oil prices and a decrease in the volume of its sale.

The need to achieve international financial stability determines the relevance of assessing the prospects for the regulation of the international financial system.

Measures are proposed to improve the existing concept of regulation of the international financial system on the basis of modern technologies, International self-management practices and the help of regulators to achieve sustainable development goals.

Key words: international financial system, financial regulation, regulatory arbitration, international financial organizations, world financial market, sustainable development, financial stability.

MUNDARIJA

Annotatsiya	2
Mundarija	4
Keltirilgan jadvallar ro'yxati	5
Keltirilgan rasmlar ro'yxati	6
Keltirilgan qisqartmalar	6
I BOB. KIRISH	7
1.1. Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi	8
1.2. Tadqiqot maqsadi va vazifalari	9
1.3. Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari	10
1.4. Tadqiqot obyekti va predmeti	10
1.5. Tadqiqot natijalarining ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati	11
1.6. Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi	12
II BOB. ADABIYOTLAR SHARHI	14
2.1. Kirish	14
2.2. Mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlar sharhi	14
2.3. Mavzuga oid mahalliy me'yoriy-huquqiy hujjatlar sharhi	18
III BOB. METODOLOGIYA	20
3.1. Tadqiqot dizayni	20
3.2. Ma'lumotlarni to'plash jarayoni	20
3.3. Tahlil uchun qo'llaniladigan usullar	21
3.4. Tadqiqotni o'tkazish uchun zarur sharoitlar	22
3.5. Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi...22	

3.6. Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar	24
IV BOB. TAHLIL VA NATIJALAR	25
4.1. Xalqaro moliya tizimining muammolarining tahlili	25
4.2. Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlararo investitsiyalar tahlili	40
4.3. Xalqaro moliyaviy tizimning xavflarini ekonometrik modellashtirish.....	48
V BOB. XULOSA	53
5.1. Tadqiqot savoliga tegishli natijalarning qisqacha ifodasi	53
5.2. Tadqiqotning asosiy taklif va tavsiyalari	55
5.3. Tadqiqot cheklovlari va kelgusi tadqiqotlar uchun takliflar	55
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	57
ILOVALAR	60

KELTIRILGAN JADVALLAR RO'YXATI

Jadval 1. Dunyoning yetakchi iqtisodiyotlarida transchegaraviy kapital oqimlari (milliard AQSh dollari)	26
Jadval 2. 2023-yilda eng yirik banklarning aktivlari, milliard AQSh dollarda	30
Jadval 3. Pul «yuvishga» qarshi indeks bo'yicha dunyo mamlakatlari reytingi	33
Jadval 4. Offshor markazlari soniga kiritilgan mamlakatlar, hududlar va alohida yurisdiksiyalar	36
Jadval 5. Markaziy Osiyo davlatlarida to'plangan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar xajmi (million AQSh dollari)	43

I-bob. KIRISH

Xalqaro moliya tizimi butun mavjud jahon iqtisodiyoti uchun asos bo'lib xizmat qiladi va, albatta, muhim rol o'ynaydi. Xalqaro moliya tizimi bir yoki bir nechta davlatlarning manfaatlarini ifoda etmasligi kerak.

Rivojlanayotgan mamlakatlar hukumati moliyaviy boshqaruvni isloh qilish bo'yicha bir qator choralarni ko'rishi kerak, bu esa mamlakatni investitsiyalar uchun yanada jozibador qiladi.

Hech shubha yo'qki, o'tkan yillar davomida dunyoning deyarli barcha mamlakatlarini to'liq qamrab olgan koronavirus pandemiyasi va ayrim iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar o'rtasidagi siyosiy ziddiyatlarning tobora ortib borayotganligi bizning davrimizning yangi xalqaro muammosidir.

Bu kabi muammolar xalqaro moliya tizimining samarali faoliyat yuritishiga to'sqinlik qiladi va mamlakatlar o'rtasida erkin moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishda bir qancha qiyinchiliklar yuklaydi.

Xalqaro moliyaviy bozorlarni rivojlantirishning asosiy tendensiyasi - globallashuv. Hozirgi asosiy savol u qanday tamoyillar asosida quriladi, yangi iqtisodiy va ijtimoiy voqelikka moslashadi, jahon valyuta munosabatlari, bojxona siyosati, moliyaviy globallashuvning asosiy vositalari sifatida fond bozorlarini tartibga solish qanday o'zgarishlarga olib keladi.

Xalqaro muvofiqlashtirish mexanizmidagi sezilarli o'zgarishlarga qaramay, moliyaviy tartibga solish tizimi qat'iylik va yuqori narx bilan ajralib turadi, moliya institutlarining samaradorligini pasaytiradi.

Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVJ), Jahon banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (ETTB), Osiyo taraqqiyot banki (OTB) va shu kabi yirik moliya institutlarining davlatlar o'rtasidagi amaliy aloqalari bugungi kunda juda izchil va faol. Bu tashkilotlar o'zaro ham yaqindan hamkorlik qilib kelmoqda, chunki ularni bu yo'l va amalga oshirayotgan islohotlar butkul to'g'ri ekaniga ishonchlari komil.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan 1992-yil 2-iyulda "xalqaro valyuta jamg'armasiga (XVJ) a'zolik to'g'risida"gi qarori qabul qilindi va 1992-yil 21-sentyabrda XVJga a'zo bo'ldi va Vazirlar Mahkamasining qaroriga muvofiq XVJ imzosi uchun to'lov kvotasi to'landi.